# Jizzax viloyatida kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining asosiy koʻrsatkichlari

*2024- yil uchun*

I. Faoliyat koʻrsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni
II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish oʻrinlari soni
III. Umumiy iqtisodiy koʻrsatkichlar
IV. Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy koʻrsatkichlari
V. Sanoat
VI. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi
VII. Qurilish
VIII. Xizmatlar
IX. Savdo faoliyati
X. Ovqatlanish bilan ta'minlash
XI. Innovatsiya

## I. Faoliyat koʻrsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni

*(2025- yilning 1- yanvar holatiga)*

2025-yilning 1-yanvar holatiga koʻra, faoliyat koʻrsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 12,8 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat koʻrsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng koʻpi savdo sohasida 4,3 mingta (jamiga nisbatan 33,7 %), qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 2,6 mingta (20,0 %), sanoat tarmoqlarida 1,9 mingta (14,9 %), qurilish sohasida 1,0 mingta (7,9 %), yashash va ovqatlanish tarmoqlarida 1,0 mingta (7,9 %) qayd etilgan.

Faoliyat koʻrsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha ulushi *(2025- yilning 1- yanvar holatiga)*



## Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko‘rsatkichlari

2024- yilda Jizzax viloyati bo‘yicha o‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo‘lgan xodimlar soni 39 825 tani tashkil etdi. Ma’lumot uchun: 2023- hisobot yilida o‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo‘lgan xodimlar soni 37 542 tani tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo‘yicha o‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo‘lgan xodimlar sonining eng ko‘pi Jizzax shahri (16 226 ta), Sh.Rashidov (6 332 ta), Zomin (2 801 ta), Forish (2 680 ta), G‘allaorol (2 622 ta), Paxtakor (1 999 ta) va Baxmal (1 498 ta) tumanlariga to‘g‘ri kelgan.

2024- yilda Jizzax viloyati bo‘yicha o‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo‘lgan ayol xodimlar soni 7 434 tani tashkil etdi. Ma’lumot uchun: 2023- hisobot yilida o‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo‘lgan ayol xodimlar soni 7 106 tani tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo‘yicha o‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo‘lgan ayollar sonining eng ko‘pi Jizzax shahri (3 536 ta), Sh.Rashidov (910 ta), G‘allaorol (564 ta), Zomin (551 ta), Paxtakor (306 ta) va Yangiobod (251 ta) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

2024-yilda iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo‘lgan xodimlar sonining eng ko‘pi sanoat tarmog‘ida (10 025 nafar), savdo sohasida (8 964 nafar), qurilishda (7 814 nafar), boshqa turdagi xizmatlar sohasida (9 360 nafar), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida (3 373 nafar) va tashish va saqlashda (1 251 nafar) kuzatildi.

2024- yilda Jizzax viloyati bo‘yicha mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar hajmi 974,0 mlrd so‘mni tashkil etdi. Ma’lumot uchun: 2023- hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar hajmi 786, 6 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo‘yicha mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko‘pi Jizzax shahri (443 ,2 mlrd so‘m), Sh.Rashidov (143,9 mlrd so‘m), Zomin (85,0 mlrd so‘m), Forish (59,9 mlrd so‘m), G‘allaorol (55,1 mlrd so‘m), Paxtakor (39,0 mlrd so‘m) va Arnasoy (31,2 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Jizzax viloyati bo‘yicha 2024- yilda mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar hajmi 154 ,7 mlrd so‘mni tashkil etdi. Ma’lumot uchun: 2023- hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar hajmi 117,9 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo‘yicha mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko‘pi Jizzax shahri (81,7 mlrd so‘m), Sh.Rashidov (17,0 mlrd so‘m), Zomin (13,5 mlrd so‘m), G‘allaorol (9,7 mlrd so‘m), Paxtakor (6,8 mlrd so‘m), Forish (4,5 mlrd so‘m) va Do‘stlik (4,3 mlrd so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarning eng ko‘p hajmi sanoatda (295,2 mlrd so‘m), savdo sohasida (175,9 mlrd so‘m), boshqa turdagi xizmatlar sohasida(214,3 mlrd so‘m), qurilish sohasida (203,9 mlrd so‘m), axborot va aloqa sohasida (27,3 mlrd so‘m) hamda yashash va ovqatlanish sohasida (57,3 mlrd so‘m)ga to‘g‘ri keldi.

## II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish oʻrinlari soni

2024- hisobot yilida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish oʻrinlari soni 13 065 tani tashkil etdi.

Shahar va tumanlar boʻyicha yangi ochilgan ish oʻrinlari soningning eng koʻpi Jizzax shahri (4 527 ta), Sh.Rashidov (2 403 ta), Zomin (929 ta), Forish (923 ta), Gʻallaorol (866 ta), Arnasoy (612 ta) va Paxtakor (590 ta) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

Mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan xodimlarning yillik oʻrtacha soni 2024- yilda 43,8 ming kishini tashkil etdi. Ma'lumot uchun: 2023- hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan xodimlarning yillik oʻrtacha soni 43,7 ming kishini tashkil etgan.

Fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik oʻrtacha soni 2024- yilda 232 kishini tashkil etdi. Ma'lumot uchun: 2023- hisobot yilida fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik oʻrtacha soni 218 kishini tashkil etgan.

Shahar va tumanlar boʻyicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni (birlikda)

| | Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda | | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|
| | 2023- yil. | 2024- yil. | |
| **Jizzax viloyati** | **1 238** | **1 366** | **100,0** |
| Jizzax sh. | 289 | 326 | 23,9 |
| *tumanlar:* | | | |
| Arnasoy | 58 | 97 | 7,1 |
| Baxmal | 54 | 59 | 4,3 |
| Gʻallaorol | 138 | 169 | 12,4 |
| Sharof Rashidov | 110 | 132 | 9,7 |
| Doʻstlik | 106 | 95 | 7,0 |
| Zomin | 108 | 118 | 8,6 |
| Zarbdor | 87 | 84 | 6,1 |
| Zafarobod | 44 | 55 | 4,0 |
| Mirzachoʻl | 44 | 32 | 2,3 |
| Paxtakor | 56 | 57 | 4,2 |
| Forish | 113 | 74 | 5,4 |
| Yangiobod | 31 | 68 | 5,0 |

2024- yilda Jizzax viloyati boʻyicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 366 tani tashkil etdi. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 128 taga koʻp demakdir. Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning, jami faoliyat koʻrsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonidagi ulushi 10,4 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar boʻyicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soningning eng koʻpi Jizzax shahri – 326 ta (23,9 %), Gʻallaorol – 169 ta (12,4 %), Sh.Rashidov –

132 ta (9,7 %), Zomin – 118 ta (8,6 %), Arnasoy – 97 ta (7,1 %), Do‘stlik – 95 ta (7,0 %) hamda Zarbdor – 84 ta (6,1 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarda o‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo‘lgan xodimlar soni 2 542 kishini tashkil qildi. Mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 42,7 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko‘rsatkichlari

| | O‘lchov birligi | 2023- yil | 2024- yil |
|---|---|---|---|
| O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo‘lgan xodimlar soni | kishi | 2 215 | 2 542 |
| Mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar | mlrd so‘m | 33,3 | 42,7 |
| Hisobot yili oxiriga mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan xodimlar soni | kishi | 2 583 | 2 958 |
| shu jumladan oliy ma’lumotli | kishi | 599 | 649 |
| Hisobot yilida yangi ochilgan ish o‘rinlari soni | birlik | 634 | 1 000 |
| Hisobot yilida qisqartirilgan ish o‘rinlari soni | birlik | 392 | 466 |
| Hisobot yilida mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan xodimlarning yillik o‘rtacha soni | kishi | 2 638 | 2 975 |
| Tashqi o‘rindoshlarning yillik o‘rtacha soni | kishi | 30 | 29 |
| Fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o‘rtacha soni | kishi | 11 | 36 |

### III.Umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 19 882,5 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum miqdori va ulushining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘pi savdo sohasida 8 975,3 mlrd so‘m (45,1 %), sanoat tarmog‘ida 4 477,1 mlrd so‘m (22,5 %), qurilishda 3 394,7 mlrd so‘m (17,1 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 1 139,8 mlrd so‘m (5,7 %), boshqalarda 834,6 mlrd so‘m (4,2 %), tashish va saqlashda 413,6 mlrd so‘m (2,1 %), yashash va ovqatlanishda 509,1 mlrd so‘m (2,6 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida 78,5 mlrd so‘m (0,4 %) hamda axborot va aloqa sohasida 59,6 mlrd so‘m (0,3 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar,ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko‘pi Jizzax shahri (10 081,3 mlrd so‘m), Sh.Rashidov (2 606,7 mlrd so‘m), Zomin (1 501,7 mlrd so‘m), Forish (1 124,4 mlrd so‘m), Baxmal (834,7 mlrd so‘m), G‘allaorol (818,2 mlrd so‘m) hamda Paxtakor (686,7 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi, ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdori 394,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy natijalar 522,2 mlrd so'mga kamayganligini ko'rsatdi.

Shuningdek, 2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 242,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan sof foydaning 451,8 mlrd so'mga kamayganligini ko'rsatdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining eng ko'pi Jizzax shahri (306,0 mlrd so'm), Arnasoy (92,8 mlrd so'm), Paxtakor (58,8 mlrd so'm), Sh.Rashidov (51,7 mlrd so'm), Baxmal (36,7 mlrd so'm), Mirzacho'l (21,9 mlrd so'm) hamda Zafarobod (18,2 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi savdo sohasida – 308,6 mlrd so'm (78,2 %), qurilishda – 110,5 mlrd so'm (28,0 %), sanoatda – 22,8 mlrd so'm (5,8 %), tashish va saqlashda – 17,2 mlrd so'm (4,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 4,4 mlrd so'm (1,1 %) hamda axborot va aloqa sohasida – 2,5 mlrd so'm (0,6 %) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) va sof foydasi (zarar) miqdori (mlrd so'm)

| | **Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)** | | **Sof foyda (zarar)** | |
|---|---|---|---|---|
| | **2023- yil** | **2024- yil** | **2023- yil** | **2024- yil** |
| **Jami** | **916,9** | **394,7** | **694,5** | **242,6** |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 11,5 | -14,0 | -0,4 | -30,3 |
| Sanoat | 321,5 | 22,8 | 272,1 | 4,4 |
| Qurilish | 159,8 | 110,5 | 272,1 | 80,2 |
| Savdo | 191,1 | 308,6 | 155,5 | 250,0 |
| Tashish va saqlash | -5,4 | 17,2 | -9,1 | 14,9 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 2,0 | 4,4 | -4,1 | -4,5 |
| Axborot va aloqa | 5,3 | 2,5 | 4,7 | 2,3 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 5,5 | -1,8 | 4,3 | -2,8 |
| Boshqa turdagi xizmatlar | 225,6 | -55,5 | 183,4 | -71,6 |

## IV.Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari

2024- yilning 1- yanvar holatiga kichik korxona va mikrofirmalarning debitor qarzdorligi 3 795,2 mlrd so'm, kreditor qarzdorligi 3 844,7 mlrd so'mga yetgan.

Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi 15 194,8 mlrd so'm, asosiy vositalarning eskirish summasi 2 305,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy koʻrsatkichlari mlrd soʻmda

| | 2023- yil | 2024- yil |
|---|---|---|
| Yil oxiriga debitorlik qarz | 3 658,2 | 3 795,2 |
| Yil oxiriga kreditorlik qarz | 4 451,1 | 3 844,7 |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlangʻich (qayta tiklash ) qiymati boʻyicha bahosi | 14 825,2 | 15194,8 |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi | 2 009,8 | 2 305,4 |
| Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning boshlangʻich qiymati boʻyicha bahosi | 31,4 | 29,6 |
| Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi summasi | 14,7 | 15,9 |
| Tugallanmagan qurilishlar (oʻrnatilmagan uskunalarni qoʻshgan holda) | 4 283,8 | 5 596,6 |

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 575,7 mlrd soʻmni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 145,1 mlrd soʻmga koʻp demakdir. 2024- yilda rahbari ayol kishi boʻlgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning ulushi jami sof tushumning 2,9 % ini tashkil etgan.

Shahar va tumanlar boʻyicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng koʻpi Jizzax shahri (312,3 mlrd soʻm), Gʻallaorol (52,7 mlrd soʻm), Arnasoy (45,4 mlrd soʻm), Zomin (38,2 mlrd soʻm), Sh.Rashidov (35,9 mlrd soʻm), Mirzachoʻl (23,6 mlrd soʻm), shuningdek, Doʻstlik (19,5 mlrd soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

Shahar va tumanlar boʻyicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum hajmi va jamidagi ulushi

| | Hajmi, mlrd soʻm | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| **Jizzax viloyati** | **575,7** | **100,0** |
| Jizzax sh. | 312,3 | 54,3 |
| *tumanlar:* | | |
| Arnasoy | 45,4 | 7,9 |
| Baxmal | 4,8 | 0,8 |
| Gʻallaorol | 52,7 | 9,2 |
| Sharof Rashidov | 35,9 | 6,2 |
| Doʻstlik | 19,5 | 3,4 |
| Zomin | 38,2 | 6,7 |
| Zarbdor | 12,2 | 2,1 |
| Zafarobod | 9,4 | 1,6 |
| Mirzachoʻl | 23,6 | 4,1 |
| Paxtakor | 10,5 | 1,8 |
| Forish | 7,1 | 1,2 |
| Yangiobod | 4,1 | 0,7 |

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari) miqdori 20,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 15,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari (mlrd so'mda)

| | 2023- yil | 2024- yil |
|---|---|---|
| Mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum | 430,6 | 575,7 |
| Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar tannarxi | 365,8 | 474,3 |
| Foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari) | -5,8 | 20,5 |
| Sof foyda (zarar (-)) | -9,7 | 15,2 |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi | 211,5 | 331,9 |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi | 42,5 | 63,6 |

## V.Sanoat

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 5 092,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotini 1 055,6 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmining eng ko'pi Jizzax shahrida (2 295,2 mlrd so'm), Sh.Rashidov (668,7 mlrd so'm), Forish (663,9 mlrd so'm), Paxtakor (354,0 mlrd so'm) va Arnasoy (337,5 mlrd so'm) tumanlarida kuzatildi.

Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz) (mlrd so'mda)

| | Jami | | Rahbari ayol kishi bo'lgan | |
|---|---|---|---|---|
| | Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi, mlrd so'mda | | Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi, mlrd so'mda | |
| | 2023- yil | 2024- yil | 2023- yil | 2024- yil |
| **Jizzax viloyati** | **4 037,2** | **5 092,8** | **33,9** | **85,4** |
| Jizzax sh. | 1 293,0 | 2 295,2 | 18,4 | 46,8 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Arnasoy | 394,3 | 337,5 | 0,2 | 28,7 |
| Baxmal | 242,1 | 77,4 | 0,4 | 0,8 |
| G'allaorol | 453,9 | 107,5 | 3,2 | 1,4 |
| Sharof Rashidov | 470,1 | 668,7 | 2,2 | 2,2 |
| Do'stlik | 76,9 | 77,0 | 1,5 | 2,4 |
| Zomin | 121,5 | 291,3 | 4,3 | 0,4 |
| Zarbdor | 147,6 | 74,8 | 0,3 | 0,5 |
| Zafarobod | 45,5 | 27,7 | 0,2 | 0,4 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Mirzacho‘l | 184,1 | 73,7 | - | 0,1 |
| Paxtakor | 344,2 | 354,0 | 0,3 | 1,2 |
| Forish | 241,2 | 663,9 | 2,8 | 0,3 |
| Yangiobod | 22,8 | 44,1 | 0,2 | 0,2 |

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 85,4 mlrd so‘mni tashkil etgan.

2024- yilda rahbari ayol kishi bo‘lgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi, jami kichik korxona va mikrofirmalar ishlab chiqargan sanoat mahsulotining 1,8 % ini tashkil etdi. Sanoat mahsuloti hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri (46,8 mlrd so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

## VI. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat turlari bo‘yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 628,6 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2024- yilda Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, faoliyat turlari bo‘yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi

| | Hajmi, mlrd so‘mda |
|---|---|
| **Jami** | **628,6** |
| O‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash | 594,6 |
| Baliq ovlash va akvakultura | 0,4 |
| Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish | 33,6 |

Shahar va tumanlar bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmining eng ko‘pi Sh.Rashidov (144,5 mlrd so‘m), G‘allaorol (85,5 mlrd so‘m), Zafarobod (85,2 mlrd so‘m) va Zomin (55,1 mlrd so‘m) tumanlarida kuzatildi.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo‘jaligida, faoliyat turlari bo‘yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 15,2 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo‘jaligida, faoliyat turlari bo‘yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatishda 14,8 mlrd so‘m, o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlashda 0,4 mlrd so‘mni tashkil etgan.

## VII.Qurilish

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 824,1 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu esa, 2023- yilga nisbatan qurilish ishlarini 5,7 mlrd so‘mga oshganligini ko‘rsatmoqda.

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining taqsimlanishi, yangi qurilish ishlarining rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirishda 2 062,4 mlrd so‘m, kapital ta’mirlashda 182,3 mlrd so‘m, joriy ta’mirlashda 281,6 mlrd so‘m boshqa pudrat ishlarida 297,8 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining taqsimlanishi (2024- yilda, mlrd so'm)




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (1 454,3 mlrd so'm), Sh.Rashidov (394,6 mlrd so'm), Forish (146,5 mlrd so'm) va Paxtakor (136,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hajmi(QQSsiz) (mlrd so'mda)

| | **Jami** | | **Shundan ayollar rahbarligidagi korxonalarda** | |
|---|---|---|---|---|
| | **Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi** | | **Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi** | |
| | **2023- yil** | **2024- yil** | **2023- yil** | **2024- yil** |
| **Jizzax viloyati** | **2 818,4** | **2 824,1** | **41,5** | **12,0** |
| Jizzax sh. | 1 510,8 | 1454,3 | 22,7 | 8,2 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Arnasoy | 26,1 | 36,1 | - | - |
| Baxmal | 62,0 | 77,3 | 3,8 | - |
| G'allaorol | 125,3 | 90,4 | - | - |
| Sharof Rashidov | 534,1 | 394,6 | 0,1 | 0,4 |
| Do'stlik | 48,6 | 47,2 | 0,9 | 0,4 |
| Zomin | 197,9 | 393,0 | 2,6 | 1,2 |
| Zarbdor | 51,8 | 9,3 | 1,5 | 0,8 |
| Zafarobod | 15,0 | 16,5 | - | - |
| Mirzacho'l | 20,7 | 18,8 | - | 1,1 |
| Paxtakor | 122,8 | 136,5 | - | - |
| Forish | 102,5 | 146,5 | - | - |
| Yangiobod | 1,0 | 3,6 | - | - |

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 535,4 mlrd soʻmni tashkil etdi. Bu esa 2023- yilga nisbatan bajarilgan qurilish ishlarini 633,2 mlrd soʻmga oshganini koʻrsatmoqda.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, kichik korxona va mikrofirmalar jami qurilish ishlarining 0,4 % ini tashkil etdi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarda shahar va tumanlar boʻyicha eng koʻp amaldagi narxlarda oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (8,2 mlrd soʻm), Zomin (1,2 mlrd soʻm), Mirzachoʻl (1,1 mlrd soʻm) va Zarbdor (0,8 mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan amaldagi narxlarda oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmining taqsimlanishi, yangi qurilish ishlarining rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirishda 10,3 mlrd soʻm, kapital taʼmirlashda 0,1 mlrd soʻm, joriy taʼmirlashda 0,6 mlrd soʻm boshqa pudrat ishlarida 1,0 mlrd soʻmni tashkil etdi.

## VIII. Xizmatlar

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan) xizmatlar hajmi 3 507,0 mlrd soʻmni tashkil etdi. Bu esa 2023 - yilga nisbatan ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan) xizmatlarni 510,3 mlrd soʻmga oshganini koʻrsatdi.

Shahar va tumanlar boʻyicha ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan) xizmatlarning eng koʻpi Jizzax shahri (1 954,3 mlrd soʻm), Sh.Rashidov (442,8 mlrd soʻm), Zomin (182,6 mlrd soʻm), Baxmal (234,0 mlrd soʻm) va Forish (161,0 mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.

Shahar va tumanlar boʻyicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan) xizmatlar hajmi (mlrd soʻmda)

| | Jami xizmat | | Shundan: ayollar rahbarligida | |
|---|---|---|---|---|
| | 2023- yil | 2024- yil | 2023-yil | 2024-yil |
| **Jizzax viloyati** | **2 996,7** | **3 507,0** | **89,9** | **127,0** |
| Jizzax sh. | 1 850,8 | 1 954,3 | 44,6 | 56,6 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Arnasoy | 46,8 | 79,5 | 2,1 | 7,7 |
| Baxmal | 183,9 | 234,0 | 0,7 | 1,5 |
| Gʻallaorol | 91,5 | 157,0 | 7,9 | 15,9 |
| Sharof Rashidov | 333,2 | 442,8 | 7,0 | 13,9 |
| Doʻstlik | 33,2 | 55,0 | 4,0 | 4,9 |
| Zomin | 123,3 | 182,6 | 6,6 | 8,1 |
| Zarbdor | 65,2 | 56,9 | 1,2 | 3,0 |
| Zafarobod | 33,3 | 46,1 | 0,5 | 1,2 |
| Mirzachoʻl | 26,3 | 37,4 | 8,2 | 7,5 |
| Paxtakor | 59,3 | 85,1 | 4,0 | 4,0 |
| Forish | 139,8 | 161,0 | 2,1 | 1,6 |
| Yangiobod | 10,1 | 15,3 | 1,0 | 1,1 |

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi 127,0 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlarni 37,1 mlrd so‘mga oshganini ko‘rsatdi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi, kichik korxona va mikrofirmalar jami xizmatlar hajmining 3,6 % ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar bo‘yicha ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlarning eng ko‘pi Jizzax shahri (56,6 mlrd so‘m), G‘allaorol (15,9 mlrd so‘m), Sh.Rashidov (13,9 mlrd so‘m) va Zomin (8,1 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## IX. Savdo faoliyati

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi 6 432,3 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu esa 2023- yilga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasini 3 466,7 mlrd so‘mga oshganini ko‘rsatdi.

Shahar va tumanlar bo‘yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri (4 406,9 mlrd so‘m) va Sh.Rashidov tumanlarida (693,3 mlrd so‘m) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so‘mda)

| | Ulgurji savdo | | Chakana savdo | |
|---|---|---|---|---|
| | **2023- yil.** | **2024- yil.** | **2023- yil.** | **2024- yil.** |
| **Jizzax viloyati** | **2 965,6** | **6 432,3** | **2 382,1** | **5 930,2** |
| Jizzax sh. | 1 737,4 | 4406,9 | 1 087,3 | 2112,4 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Arnasoy | 60,5 | 119,1 | 35,8 | 72,9 |
| Baxmal | 125,4 | 289,2 | 104,4 | 1202,6 |
| G‘allaorol | 113,0 | 157,3 | 191,6 | 456,6 |
| Sharof Rashidov | 292,8 | 693,3 | 375,0 | 984,5 |
| Do‘stlik | 60,1 | 107,3 | 57,5 | 71,3 |
| Zomin | 395,7 | 406,8 | 149,8 | 488,5 |
| Zarbdor | 96,5 | 102,5 | 34,4 | 57,1 |
| Zafarobod | 17,6 | 20,7 | 14,5 | 51,7 |
| Mirzacho‘l | 15,3 | 37,7 | 29,5 | 53,4 |
| Paxtakor | 15,6 | 35,1 | 148,8 | 196,7 |
| Forish | 26,4 | 36,4 | 137,7 | 162,8 |
| Yangiobod | 9,3 | 20,0 | 15,8 | 19,7 |

2024-yilda kichik korxona va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 5 930,2 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu esa, 2023-yilga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasini 3 548,1 mlrd so‘mga oshganini ko‘rsatdi.

Shahar va tumanlar bo‘yicha chakana savdo tovar aylanmasining eng ko‘pi Jizzax shahri (2 112,4 mlrd so‘m), Baxmal (1 202,6 mlrd so‘m), Sh.Rashidov (984,5 mlrd so‘m), Zomin (488,5 mlrd so‘m) va G‘allaorol (456,4 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## X. Ovqatlanish bilan ta’minlash

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning ovqatlanish bilan ta’minlash bo‘yicha tovar aylanmasi hajmi 380,5 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu esa, 2023- yilga nisbatan ovqatlanish bilan ta’minlash tovar aylanmasini 61,3 mlrd so‘mga ko‘payganligini ko‘rsatmoqda.

Shahar va tumanlar bo‘yicha ovqatlanish bilan ta’minlash tovar aylanmasining eng ko‘pi Jizzax shahri (164,5 mlrd so‘m), Sh.Rashidov (87,3 mlrd so‘m), G‘allaorol (26,7 mlrd so‘m), Baxmal (18,9 mlrd so‘m) va Do‘stlik (13,2 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## XII. Innovatsiya

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyar 39 tani tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan innovatsiyalar soni 18 taga oshganligi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar sonining eng ko‘pi Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 14 ta, savdo sohasida 12 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 6 ta va sanoat sohasida 5 tani tashkil etdi.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar

| | Texnologik innovatsiyalar, birlikda. | marketing innovatsi-yalari, birlikda | tashkiliy innovatsi-yalar, birlikda | innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar, hajmi, mlrd so‘m | texnologik innovatsiyalar-ga xarajatlar, mlrd so‘m |
|---|---|---|---|---|---|
| **Jami** | **39** | **-** | **2** | **40,0** | **30,4** |
| Qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 6 | - | - | 10,5 | 3,7 |
| Sanoat | 5 | - | - | 8,8 | 5,8 |
| Qurilish | 1 | - | - | 8,0 | 4,6 |
| Savdo | 12 | - | 1 | 10,3 | 6,3 |
| Tashish va saqlash | - | - | - | - | - |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 | - | - | - | - |
| Axborot va aloqa | - | - | - | - | - |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 14 | - | - | 2,4 | 8,7 |
| Boshqa turdagi xizmatlar | - | - | 1 | - | 1,3 |

Shahar va tumanlar bo‘yicha joriy etilgan innovatsiyalarning eng ko‘pi Jizzax shahri (18 ta), Zomin (6 ta), G‘allaorol (3 ta), Paxtakor (3 ta), Baxmal (2 ta) hamda Sh.Rashidov (2 ta) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilda shahar va tumanlar bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar

| | Texnologik innovatsiyalar, birlikda. | marketing innovatsiyalari, birlikda | tashkiliy innovatsiyalar, birlikda | innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar, hajmi, mlrd so‘m | texnologik innovatsiyalar-ga xarajatlar, mlrd so‘m |
|---|---|---|---|---|---|
| **Jizzax viloyati** | **39** | **-** | **2** | **40,0** | **30,4** |
| Jizzax sh. | 18 | - | 1 | 7,0 | 5,7 |
| *tumanlar:* | | | | | |
| Arnasoy | 1 | - | - | - | - |
| Baxmal | 2 | - | - | - | - |
| G‘allaorol | 3 | - | - | 5,7 | 7,0 |
| Sharof Rashidov | 2 | - | - | 3,9 | 2,3 |
| Do‘stlik | | - | - | 0,2 | 0,1 |
| Zomin | 6 | - | - | 1,0 | 1,0 |
| Zarbdor | 1 | - | 1 | 0,9 | 1,3 |
| Zafarobod | 1 | - | - | 6,7 | 1,2 |
| Mirzacho‘l | | - | - | 6,0 | - |
| Paxtakor | 3 | - | - | 5,3 | 5,4 |
| Forish | 1 | - | - | - | 0,1 |
| Yangiobod | 1 | - | - | 3,3 | 6,3 |

Mikrofirma va kichik korxonalarning faoliyati to‘g‘risidagi statistik ko‘rsatkichlar quyidagi ma’lumotlar asosida shakllantirilgan.

1 kb (yillik) “Mikrofirma va kichik korxonaning 2024-yil uchun hisoboti”ni mikrofirma va kichik korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida tayyorlangan. Tarmoqlar kesimidagi ma’lumotlarni, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar statistik tasniflagichining ro‘yxati asosida jamlangan ma’lumotlar bo‘yicha tayyorlangan.

Mazkur ma’lumotlar tarkibiga yirik tijorat korxonalari, byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari va banklarning ko‘rsatkichlari kiritilmagan.

**Tayyorlash uchun mas’ul:**
Tadbirkorlik subyektlarini kuzatuv bo‘limi

**Ijrochi:**
D.Abdujabborov
72 221-51-02 (2530)

**Manzil:**
Jizzax viloyati Statistika boshqarmasi